"Ilm-fan va innovatsiya rivoji bugungi kun talabiga javob beradimi?" mavzusida matbuot anjumani o’tkazildi

Bugun, 10-dekabr kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida "Ilm-fan va innovatsiya rivoji bugungi kun talabiga javob beradimi?" mavzusida matbuot anjumani bo’lib o’tdi. Matbuot anjumanida 2020-yil 3-dekabr kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida “Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish borasida oliygoh, ilmiy tashkilotlar, tarmoq va hududlar oldidagi ustuvor vazifalar”ga bag’ishlangan yig’ilishda berilgan topshiriqlar ijrosi muhokama qilindi.

Unda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy ta’lim vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligi mutasaddi xodimlari ishtirok etdi.

Fanlar akademiyasi bosh ilmiy kotibi G’ayrat Bahodirov olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar to’g’risida gapirar ekan, “7-9-dekabr kunlari Innovatsion rivojlanish vazirligida ilmiy tashkilotlar, xususan, FA ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan yaratilgan iqtisodiyotning u yoki bu tarmoqlariga joriy etishga tayyor bo’lgan ilmiy ishlanmalar taqdimoti o’tkazildi. Hozirda ular birgalikda qizg’in ishlar olib borilmoqda. Man o’ylamanku, bu albatta, tez orada o’z natijasini beradi” dedi.

Shuningdek, anjumanda olimlar tomonidan yaratilayotgan ishlanmalar, ularning amaliyotga kam joriy etilayotganligi va buning sabablari, tashkilotlar oldidagi muhim vazifalar muhokama qilindi. Jurnalistlar tomonidan berilgan savollarga javoblar berildi.